

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.D.Baxronov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'rni.....	201
H.S.Ergashev	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi	207
I.T.Boltaboyev	
Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'rni.....	212
Sh.O'.Ahrorova	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni.....	216
U.X.Kolmatov	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari.....	220
F.B.Rahmonova	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili	225
J.Saburov	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri	230
B.A.Pulatov	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari	236
S.S.Evaton	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
A.Sh.Raximov	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi	245
SIYOSAT	
Sh.Ismoilov	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliш	249
D.Sh.Mahkamov	
Hakamlik sudi va davlat sndlari o'rtasidagi farqlar	252
R.Nurimbetov	
Shanaxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari	255
B.X.Allamurodov	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan)	258
M.B.Nabiев	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
N.Madumarova	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida	269
A.A.Buriyev	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'rni va bu boradagi xorijiy tajriba	273
D.Mamadjonova	
Siyosiy partiyaning faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
A.A.Ahrorqulov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
TARIX	
Бурхониддин Чалодиддин	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
M.T.Musaev	
Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi	292
R.A.Arslonzoda	
Отражение литературной жизни Бухары в "воспоминаниях" Садриддина Айни	297



УО'К: 94(575/146-25):28

**BUXORO AMIRLIGIDA TASVVUF ILMU UZVIYLIJI VA IJTIMOY MADANIY HAYOTGA
UYG'UNLIGI HAMDA TA'SIRI**

**ИНТЕГРАЦИЯ СУФИЗМА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ И ЕГО СОВМЕСТИМОСТЬ С
ОБЩЕСТВЕННОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНЬЮ**

**INTEGRATION OF SUFISM IN THE BUKHARA EMIRATE AND ITS COMPATIBILITY
WITH SOCIAL AND CULTURAL LIFE**

Saburov Jaloliddin

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoro amirligi davrida ilm-fan va islom ilmlari rivoji unda Buxoro amirlarining faoliyatları ijtimoiy ma'nnaviy muhit va davrning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Xususan, amirlikda Qur'on, hadis, fiqh va tasavvuf ilmlarini o'rganishga bo'lgan rag'bat kishilar ma'nnaviy hayotidagi o'mni birlamchi manbalar asosida ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье развитие науки и исламских наук в Бухарском эмирата в ней анализируется деятельность бухарских эмиров, особенности социально-духовной среды эпохи. В частности, в эмиратестимул к изучению Корана, хадиса, фикха и масаввуф раскрыты на основе первоисточников, роль которых в духовной жизни людей.

Abstract

In this article, the development of science and Islamic sciences in the Bukhara Emirate, it analyzes the activities of the Bukhara emirs, the peculiarities of the socio-spiritual environment and epoch. In particular, in the emirate, the incentive to study the Koran, Hadith, Fiqh and mysticism is revealed on the basis of primary sources, the role of which in the spiritual life of people.

Kalitso'zlar: ma'nnaviyat, ilm, ma'rifat, tasavvuf, hadis, fiqh, tafsir, insonparvarlik, madaniyat, makonvazamon, ijtimoiyhayot, axloq.

Ключевые слова: духовность, наука, просвещение, суфизм, хадис, фикх, тафсир, гуманизм, культура, пространство и время, общественная жизнь, мораль.

Key words: spirituality, science, enlightenment, mysticism, hadith, Fiqh, tafsir, humanism, culture, space and time, social life, morality

KIRISH

Buxoroda tasavvuf va uning insonparvarlik g'oyalari islom dini bilan bir vaqtida kirib keldi, desak, xato bo'lmaydi. Chunki, islomning tavhid g'oyasi, Qur'on ma'rifati, nafsi tarbiyalash, ilm o'rganishga, axloqiy isloh bo'lishga undovchi oyatlar, inson va uning yaralishi bilan bog'liq hikmatlar islom ilmlari qatorida tasavvuf ilmining ham shakllanishi va rivojlanishga turtki bo'ldi. Shu bilan birga tasavvuf jamiyat hayotida o'ziga xos islom dini targ'ibotini mustahkamlashda, odamlarni poklikka, halol mehnat qilishga, zulm va zo'ravonliklardan tiyilishga undadi. So'fiy kishilar turmush tarzi ma'nnaviy-axloqiy qiyofasi xalqni halimlikka, axloqiy komilllikka erishishda ibrat namunasi bo'la oldi. Tasavvuf xalqni tarixning eng murakkab davrlarida mafkura bo'lib himoya qildi, ma'nnaviyatni yuksaltirdi. Insonlarni hurfikrlikka bag'rikenglikka, ruhiy yuksalishga o'rgatdi. So'fiy shayxlarning karomatlari xoriqu lodda odatlari, xalqni sharqona madaniyatning eng nozik estetik, etik jihatlarini namoyon etdi. Hukmdorlardan tortib oddiy kishilarning qalbiga kirib bordi. Ular xalqning og'irini yengil qilishga erkin yashashga, jamiyatni ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLІ

Buxoro – islom olamining ma'rifiy qubbasi sifatida tasavvuf ilmi bilan VIII asrdayoq tanishgan. Bunga sabab islomni qabul qilish jarayonida ilmga urg'u berilganligi va bu jarayonda Abu Hafs Kabir Buxoriy (IX asr) kabi mo'tadil islom ulamolarining faoliyat ko'rsatganligidir. Shu jihatdan Buxoro amirligiga (XVIII asrga) qadar bo'lgan Buxoro tasavvuf ilmining tarixiy ildizlarini shartli uch davrga bo'lish mumkin:

FALSAFA

Ilk davr (VIII-X asrlar);
 Oltin davr (XII-XV asrlar);
 Uzviy davr (XVI- XVIII asrlar).

Buxoro tasavvuf ilmining ilk davri (VIII-IX asrlar) tasavvuf ta'limoti bilan tanishish, o'rganish, qabul qilish va nazariy asoslarini yoritish bilan xarakterlanadi. Bunda ayniqsa, Abu Bakr Muhammad binni Ishoq Kalobodiy-Buxoriyning (X asr) faoliyati muhim o'rin tutadi. [1.128.]. Abu Bakr Kalobodiy Buxoro shahrining Gulobod mahallasida tug'ilgan, o'zining dunyoga mashhur tasavvuf nazariyasini o'rgatuvchi kitobi "at-Ta'arruf" ham aynan shu shaharda dunyoga kelgan. Tasavvufshunos olim B.Namozov "Abu Bakr Kalobodiyning eng katta ijodiy xizmati shundaki, u o'zining "At-taarruf" asarida an'anaviy islom va tasavvuf orasidagi muayyan o'rtachilik yo'lini topishga harakat qilgan. Mana shu o'rtachilik yo'lini topishga, an'anaviy islom va tasavvuf ta'limotini kelishtirishga keyinchalik Abu Homid G'azzoliy at-Tusiy ham uringan"[2.3.]-deb ta'kidlagan. Demak, Abu Bakr Kalobodiy tasavvuf olimi Hanafiylik mazhabi faqiji va arab tilida ilk bor tasavvuf nazariyasini tizimlashtirib bergen orifdir. Tasavvuf ilmini Shayx Qosim Forisdan (X asr) o'rgangan va uning "Ma'oni al-axbor" (Payg'ambar alayhissalom hadislarining ma'nolari) hamda "at-Ta'arruf li mazhab ahl at-tasavvuf" ("Tasavvuf ahli mazhabi bilan tanishish") tasavvufiy asarlari nafaqat Buxoroda, balki butun islom olamida tasavvuf nazariyasi bo'yicha muhim va asosiy qo'llanma sifatida qabul qilingan. Abu Bakr Kalobodiyning "at-Ta'arruf" asari Buxoro tasavvuf ilmining poydevori hisoblanadi.[3.128.] Bu asar haqida mashhur mutassavvif Shayx Yahyo Suhravardiyning (XII asr) quyidagi so'zlari mashhur: "Agar "at-Ta'arruf" bo'Imaganida, biz tasavvuf nimaligini bilmas edik".[4.128] Bu asarda tasavvuf nazariyasi Qur'oni karim va hadisi sharif ahli sunna va jamaa aqidasiga mos tarzda yozilgan.

Buxoro mozorlari tarixini yozgan Ahmad ibn Mahmud Buxoriy mutasavvif nomini hurmat bilan tilga olib "Abu Bakr Kalobodiyning holu ahvollari bayonga muhtoj emas. Zahmat chekib orasta (poklash) berishdan ko'ra o'zlari orastadir" [5.72]- deb yozadi.

E'tibor berilsa, "at-Ta'arruf" tasavvuf ilmi qomusidir, shu sababli u Buxoroda yaratilgan kishida faxr uyg'otadi va bu asardan keyin Eron hamda Arab mutasavviflari Buxoroga intilgan. Abu Bakr Kalobodiyning shogirdi Abu Ibrohim Ismoil binni Muhammad al-Mustamliy (XI asr) "at-ta'arruf" asariga "Sharh al-Nur ul-muridin" nomli sharh yozgan va bu bilan islom tasavvuf ilmi to'liq asoslangan. Bu asar O'zbekistonda Toshkent viloyati imom xatibi J. Raupov [6.]tomonidan yangidan tarjima qilindi. Abu Bakr Kalobodiyga zamondosh va bir yurtda istiqomat qilib o'z davri va keyingi zamonlar uchun katta meros qoldirgan Kalobod mahallsidan chiqqan olimlar ko'pchilikni tashkil etgan. Buxoroda tasavvuf bilan birga hadis ilmi shahar ma'naviy-ma'rifiy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Abu Bakr Kalobodiyga zamondosh muhaddis Abdulloh as-Subazmuniy (vaf. 872 y.) Buxoroda turli davrlarda yashab o'tgan 42 ta roviy va muhaddislar haqida xabar beradi.[7.58.]

Abdulkarim Sam'onyi (1113–1167) "Al-Ansob" ("Nasabnama") kitobida Mustamliy haqida shunday ma'lumotlarni keltiradi: "Abu Ibrohim Ismoil Mustamliy Buxoro ahlidan bo'lib, mufassir edi. Buxoroda ko'p olimlardan ta'lim olgan. Bu kishidan ba'zi muhaddislar hadis ham rivoyat qilishgan.Faqih va muhaddis kishi edilar. Hijriy 434 (milodiy 1043) yili zulqa'da oyining o'n oltinchisida, dushanba kuni peshindan keyin vafot etgan" [8.99].

TALQIN VA NATIJALAR

Demak, Buxoro tasavvuf ilmining ilk davri tasavvuf asoslarining yaratilishi ustoz shogird an'analarining davomiyligi bu o'lkada nafaqt tasavvuf ilmi balki, islom ilmlarining ham rivojlanishiga muhim omil bo'lgan. Buxoro tasavvuf ilmining oltin davri (XII-XV asrlar) tasavvufni ommalashtirish va Xojagon – Naqshbandiylik tariqatini ta'sis etish bilan xarakterlanadi. Bu jarayon Yusuf Hamadoniydan (XII asr) boshlanib Xoja Ahror Valiy (XV asr) bilan nihoyalananadi. Bu davrda Yusuf Hamadoniyning (XII asr) "Rutbatul hayot", Abdulxoliqu G'ijduvoniyning (XII asr) "Risola"lari va Xoja Ahror Valiyning (XV asr) "Risola"lari Ali Safiyning (XV asr) "Rashohot ayn ul-hayot" asari muhim o'rin tutadi. [9.45.]

Bu davrda "silsilai zahab" (oltin silsila) Xojagon – Naqshbandiylik tariqati ta'sis etilgani muhim hodisadir:[10.55.].

Muhammad alayhissalom



↓
Abdu Bakr Siddiq + Ali ibn Abu Tolib

- ↓ Imam Husayn
- ↓ Muhammad Boqir
- ↓ Ja'far Sodiq
- ↓ Boyazid Bistomiy + Junayd Bag'dodiy
- ↓ Abulhasan Haraqoniy
- ↓ Abulqosim Gurgoniy
- ↓ Abu Ali Formadiy
- ↓ Xoja Yusuf Hamadoniy (XI asr)
- ↓ Xoja Abdulkoliq G'ijduvoniy (v. 1179 y.)
- ↓ Xoja Orif Revgariy (v. 1317 y.)
- ↓ Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy (v. 1317 y.)
- ↓ Xoja Ali Romitaniy (v. 1326 y.)
- ↓
- Xoja Muhammad Boboyi Samosiy (v. 1354 y.)
- ↓ Sayid Amir Kulol (v. 1370 y.)
- ↓ Xoja Bahouddin Naqshband (v. 1389 y.)
- ↓
- Xoja Muhammad Porso (v. 1419 y.)
- ↓ Xoja Alouddin Attor (v. 1400 y.)
- ↓ Xoja YA'qub Charxiy (v. 1447 y.)
- ↓ Xoja Ahror Valiy (v. 1490 y.)

Mazkur tariqat tasavvuf nazariyasida Junayd Bag'dodiyning (vafoti 910 yil) mo'tadil irfon konsepsiyasiga asoslanadi. Junayd Bag'dodiy o'zining "Rasoil" asarida bayon qilishicha, uning konsepsiysi quyidagi to'rt tamoyilga asoslanadi:

- Odob
- Suhbat
- Ilm
- Amal. [11.135.]

Bu konsepsiya Xojagon-Naqbandiylik tariqatining nazariy asosi sifatida qabul qilingan va unga asosan Xoja Abdulholiq G'ijduvoniy (XII asr) hamda Xoja Bahouddin Naqshband (XIV asr) tomonidan tariqatning quyidagi 11 amaliy qoidasi ishlab chiqilgan:

- Hush dar dam – qalb, nigoh va fikrni ogoh etish;
- Nazar bar qadam – faoliyatda ogoh bo'lish;
- Safar dar vatan – ma'nnaviy va jismoniy harakatchanlik;
- Xilvat dar anjuman – omma orasida ham Allojni nazarda tutib turish;

FALSAFA

Yodkar – mudom Allojni qalbda zikr qilish;
 Bozgasht – qalbdagi Alloh zikrini tilda ham takrorlab yurish;
 Nigohdosht – tafakkurda chalg’imaslik;
 Yoddosht – ilm va amalni teng olib borish.[12.7-11]

Naqshband qoidasi:
 Vuqufi adadiy – zikrdan ma’no uqish;
 Vuqufi zamoniy – zikr vaqtida tafakkurga erishish;
 Vuqufi qalbiy – zikrda anglangan sirni qalbda saqlash.[13.17.]

Shundan kelib chiqib,Buxoro tasavvuf ilmining bu davrini “silsilai zahab” nomiga mos ravishda oltin davr deb atash mumkin. Shuni Buxoro Tasavvuf ilmining oltin davrida umumtasavvuf ruhida ijod qilgan mutasavviflar ham bor edi. Ulardan biri Buxoro faoliyat olib borgan va XV asrning yarmida yashab o’tgan Sayid Qosimiydir.

Sayid Qosimiy o’ziga xos mutasavviflardan biri. Uning tasavvufiy qarashlarining shakllanishiga Qur’on va hadislardan tashqari ikki yo’nalish kuchli ta’sir ko’rsatgan: 1) umumtasavvuf vakilarining qarashlari; 2) turkiy tilli ijodkorlarning g’oyalari deyish mumkin.

Bu masalada Sayid Qosimiy hazrati Junayd Bag’dodiy (vafoti 910 yil), Abu Bakr Shibliy (vafoti 946 yil), Muhammad G’azzoliy (vafoti 1111) va Fariddidin Attor (vafoti 1221) tasavvufiy qarashlarini chuqur o’zlashtirgan. U bu haqda o’z asarlarida kichik hikoyalar keltirish bilan ishora qilgan. O’zining “Majma’ ul-axbor” (Xabarlar to’plami) asarida “Hikoyati Shayx Junaydrahammatullohi alayh” keltirilgan. Junayd Bag’dodiy bir kuni abgor va xor itni ko’rib:

Dediki: “Bu mendin erur yaxshiroq,
 Piri xirod qoshida boittifoq [14.85.]

It – o’z sohibiga sadoqatli bo’lishi bilan Junayd Bag’dodiyda vajd uyg’otgan edi. Shu sababli Qosimiy deydi:

Mahram esang voqifi asror bo’l,
 Gul bila gul, xor bila xor bo’l[15.93.]

Ma’lumki, Junayd Bag’dodiy tasavvufda sahv – mo’tadillik yo’li asoschisi, u “zikri Qalb” kashfiyotchisi hisoblanadi. Unga ko’ra, Haq zikri ovoz chiqarmasdan Qalbda aytildi va anglangan haqiqatlar har kimga aytilmaydi. Chunki ilohiy haqiqatlarni hamma qabul qilavermaydi, uni faqat xoslar (tushunadiganlar) qabul qiladi. Bundan tashqari, Junayd Bag’dodiy yo’lida turli rasmiy va odatiy ta’qilalar yo’q, aksincha, insonni hurmat qilish bosh masala hisoblanadi. Bu xususiyatlar keyinchalik Buxoro Xojagon-Naqshbandiylik tariqatida qabul qilinganligi ma’lum. Demak, tasavvuf va tariqatlarning Buxoroda bardavom bo’lishligi uning uzviyilagini ham asarlar osha ta’milagan allomalar merosi orqali anglash mumkin.Tasavvuf Buxoroda nazariy asosga ega bo’ldi. Islomning insonparvarlik mohiyati tasavvufda namoyon bo’ldi. Buni mutasavviflar ifon sohiblari orif kishilarning mazkur ilmni vorisiylik tamoyillariga tayanib rivojlantirganligi uning uzviyilagini ta’miladi. Shu bilan birga tasavvuf ijtimoiy hayotga yaqinlashdi.Xonqoh shayxlari riyokorligi, xilvatnishinlikdan hurfikrlilikka va ixtiyor erkinligining axloqiy mohiyatini anglatishda asos bo’ldi.Jamiatning turli qatlamlariga kirib bordi. Xalqning dardini tashvishlarini uzoqlashtirishga halol mehnat qilishga jibr va zulmga qarshi turishga o’rgatdi.Odamlarning turmushi tafakkuriga kuchli ta’sir ko’rsatib an’analar qadriyatlarni islom tamoyillari asosida qaror topishiga xizmat qildi.

Rus sharqshunos olimi O.F.Akimushkin fikriga ko’ra, Junayd Bag’dodiyning “Rasoil” asarida Mutlaq Borliq (tavhid) va uni anglash nazariyasi ishlab chiqilgan. Unga ko’ra, Mutlaq Borliq – bu Illo barcha mavjudlik Undan kelib chiqadi (jam’), shu ma’noda insonning mohiyatini tashkil qiluvchi Ruhi ham Mutlaq Borlikdan ajralib chiqqan va Ruhi ana shu haqiqatni anglash uchun bu dunyoda iztirob chekadi. Ruh o’z haqiqatini anglab borgan sari turli ixtiloflardan poklanib boradi va anglangan har bir haqiqatni mutlaq haqiqat deb qabul qilavermaydi.

Sayid Qosimiy “Majma’ ul-axbor” asarida “Hikoyati Shayx Shibliy alayhir rahmat”ni keltiradi. Bir kuni Shayx Shibliy bir kishidan bug’doy xarid qiladi va uyiga kelib qarasa bug’doy ichida bir qumursqa kelibdi. Shibliy uni bug’doy olgan joyiga olib boradi va ini yoniga qo’yadi. Sayid Qosimiy bu voqeada Shibliyni nafaqat insonga, balki chumoliga ham ozor bermaydigan kishi sifatida ko’radi. Chunki Shibliy:

Aytdi: “Muruvvatdin emas mo’ri zor,
 Tushsa yiroq manzilidin dilfigor [16.123.]

A.D.Knish fikricha, Shayx Shibliy hazrati Junayd Bag'dodiy maktabiga mansub so'fiylardan biri. Ayni paytda, u hurfikr bo'lib nozik ma'noli nutqlarida va she'rlerida Mutlaq Borliq fayzini kuylagan. Samo'ni xush ko'rgan, Mansur Hallojga (vafoti 922 yil) qarshi guvohlik berishni so'raganida o'zini devonalikka solgan (chunki Shariatda devonaga chora ko'rilmaydi). Chuqur ma'noli fikrlarini jazava vaqtida aytgan (shatahiyat) va allegoriya (ishorat) bilan so'zlagan. Shibliy tasavvufda Junayd Bag'dodiy va Mansur Hallojdan keyingi eng mashhur shaxs hisoblanadi.

Sayyid Qosimiy tasavvufiy qarashlarining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan mutasavvuflardan biri Shayx Fariddidin Attordir (vafoti 1221). U Attorning "Ilohiynoma" asaridagi tasavvufiy ruhdagi "Ayol haqidagi hikoya"sinı she'riy tarjima qilib, "Ilohiynoma" asarini yaratgan:

"Ilohiynoma"ni Attor bu dur,
Davayi siynai afgor bu dur.
Oni turki bila Qosimiy aydi,
Ma'oniy guharini elg'a yoydi.
Chu erdi Shayx ruhidin talabgor,
Anga hal bo'ldi ushbu mushkil asror[17.201.].

Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asari XIV asrdayoq turkiy tilga tarjima qilingan edi. Sayyid Qosimiy esa uning butun ijodi va qarashlaridan xabardor bo'lgan. Demak, Attor va G'azzoliy meroсидан bahramand bo'lgan va Buxoro tasavvufini irfon, hikmat va falsafa bilan boyitgan Sayyid Qosimiy meroси keyingi davr tasavvufiy qarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan va ularning uzviyligini ta'minlagan.

TALQIN VA NATIJALAR

Xulosa qilish mumkinki, Buxoroda ilk tasavvuf davri namoyandalari meroси o'rganish keyingi davr tasavvuf va tariqatlarning irfoniy va falsafiy asoslarini o'rganish imkonи bilan birga tasavvufning Buxorodagi rivoji va uzviyligini bilish imkoniyatini ham beradi.

Sayyid Qosimiy hazrati Mavlono Haydar Xorazmiy vositasida Shayx Nizomiddin-Ganjaviy asari g'oyalari va hikoyalari asosida o'z asarini yaratgan. U o'z asarida Haydar Xorazmiy vositasida Shayx Nizomiddin-Ganjaviyning tasavvufiy g'oyalardan ozuqa oladi. Demak, Sayyid Qosimiy misoldida davrlar osha tasavvuf g'oyalari tamoyillari an'anaviy tarzda o'tib kelgan. Bir-biriga aloqadolikda va o'zaro ta'sirda rivojlangan. Buxoro o'lkasida keyingi asrlarda jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatgan tasavvufning asl mohiyatini islomning insonparvalik g'oyalalarini targ'ib etishdagi o'rmini ko'rsata olgan.

Zero, Sayyid Qosimiy tasavvufiy qarashlari shakllanishida Qur'on, hadis, mashhur tasavvuf vakillari va turkiy tilli mutasavvif ijodkorlar g'oyaviy ta'sir ko'rsatgan. Buxoro hududida yaratilgan tasavvufga oid asarlarning umumtasavvufiyg'oyalalar ruhi bilan sug'orilgan qismi mavjud bo'lib, bu qism oltin davrning nazariy masalalari shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Buxoro amirligi tasavvuf ilmi tarixiy ildizining uchinchi davri uzviy davrdir (XVI-XVIII asrlar), bu davr Xojagon-Naqshbandiylik tariqatining davom etish vaqtidir. Unda Buxoro Jo'ybor Hojalari faoliyati muhim o'rин tutadi. Bu silsila Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'idan bo'lib, uning asoschisi Mahdumi A'зам Kosoniyning (vafoti 1543 yil) shogirdi Xoja Muhammad Islom Jo'yboriydir (1493-1563). Mazkur zot Xojagon-Naqshbandiylik tariqatini o'z davri ehtiyoj va talablaridan kelib chiqib, "Meni uch sifat quvontiradi: mo'min qalb, yoshlikdagi tavba va yoshlanuvchi ko'z" hadisiga muvofiq targ'ib qilgan.[18.15.] Bu konseptual yondoshuvning ma'nosini quyidagicha:

Mo'min qalb – har bir shaxs Qalbildagi iyomon nuri uni tariqatga qabul qilishga asos bo'ladi;

Yoshlikdagi tavba – tariqatda yoshlikdan shaxsni qabul qilish ma'lum, biroq yoshidan qat'iy nazar oddiy fuqaro yoki shoh tavbaga yuzlansa, tavba qilsa uni tarbiyalash lozim;

Yoshlanuvchi ko'z – dard cheka oluvchi har qanday kishi tariqat asoslariga xiyonat qilmaydi.

Bu o'ziga xos yondoshuv Xojagon-Naqshbandiylik tariqati imkoniyatlarini yangi sharoitda kuchaytirdi, natijada Xoja Muhammad Islom Jo'yboriy va uning avlodlari XVI-XVII asrlarda Buxorodagi Shayboniy hamda Ashtarxoniy hukmdorlarini Xojagon-Naqshbandiylik tariqatiga itoat ettirdi.[19.187-188.] Shu tariqa Buxoro tasavvuf ilmi tarixiy ildizlarining Uzviy davri o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Акамушкин О.Ф. ал-Калободи. Ислом. Энциклопедический словарь. –М.: "Наука". 1991. –С.128

FALSAFA

2. Намозов Б. Абу Бакр Калободий тасаввуфий қарашларининг фалсафий асослари.-Тошкент: Фан нашриёти, 2009.-Б.3.
3. Калободий А. Б. Ат-Таъарруф. –Т.: F.Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2002. –Б.115.
4. Акамушкин О.Ф. ал-Калободи. Ислом. Энциклопедический словарь. –М.: “Наука”. 1991. –С.128
5. Аҳмад ибн Маҳмуд Бухорий. Тарихи муллоzода. Тошкент, 2009. –Б.72.
6. Ат-таъарруф лимазҳаби аҳли тасаввуф (тасаввуф аҳли йўли билан танишув) [матн]/ масъул муҳаррир Ж.Раупов-Тошкент:”Azmir nashr print”-2022.-324.6.
7. Муротов Д. Бухоролик ҳанафий ровийлар. ЎзМУ 90 йиллигига бағишланган Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2008.-Б.58.
8. Абдулқарим Самъоний. “Насабнома”. “Бухоро”, 2004,-Б. 99.
- 9.Хожа Юсуф Ҳамадний. Рутбат ул-ҳаёт. Т., 2004. Хожа Аблдулҳолик Фиждувоний. Асарлар. –Т., 2003.-Б.45.
- 10.Хожа Аҳрор Валий. Табаррук рисолалар. –Т., 2004. Али Сафий. Рашоҳот айн ул-ҳаёт. –Т., 2005 –Б.55.
- 11.Алишер Навоий. Насайим ул-муҳаббат. // Тўла асарлар тўплами. –Т.: “Фан”. 2001.-Б. 135.
- 12.Ориф Усмон. Фиждувоний таълимоти. –Т.: “Фан”. 2003. –Б.7-11.
13. Комилов Н. Тасаввуф. –Т.: “Ўзбекистон”. 2009. –Б.17.
14. Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: “Фан”. 1992. –Б. 85.
15. Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: “Фан”. 1992. –Б.93.
16. Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: “Фан”. 1992. –Б.123 Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: “Фан”. 1992. –Б.123
17. Сайид Қосимий. Маснавийлар мажмуаси. – Т.: “Фан”. 1992. –Б. 201,
18. Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. –Б.15.
19. Акимушкин О.А. Нақшбадийа. Ислом. Энциклопедический словарь. –М.: “Наука”. 1991. –С. 187-188.
- Иванов П.П. Хозяйство Джуйбарских шейхов: к истории феодального землевладения в Средней Азии в XVI-XVII вв. М-Л.: “Наука” 1954.
20. Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. –Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. –Б.15.